



ICHKI ISHLAR TIZIMIDA INSPEKTOR-PSIXOLOG
SHAXSIGA QO‘YILADIGAN IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TALABLAR

Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Suyunov Mirjalol Xujamqul o‘g‘li

+998943343338

Annotatsiya: Ushbu tezisda ichki ishlar tizimida faoliyat yurituvchi inspektor-psixolog shaxsiga qo‘yiladigan asosiy ijtimoiy-psixologik talablar tahlil qilinadi. Huquqni muhofaza qilish faoliyatining murakkab va stressogen xususiyatlarini inobatga olgan holda, psixolog mutaxassisning shaxsiy, kommunikativ hamda emotsional-irodaviy sifatlari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: inspektor-psixolog, ichki ishlar tizimi, ijtimoiy-psixologik talablar, kasbiy kompetensiya, stressga chidamlilik, muloqot.

Аннотация: В данном тезисе анализируются основные социально-психологические требования, предъявляемые к личности инспектора-психолога, осуществляющего профессиональную деятельность в системе органов внутренних дел. С учетом сложного и стрессогенного характера правоохранительной деятельности раскрываются личностные, коммуникативные, а также эмоционально-волевые качества специалиста-психолога.

Ключевые слова: инспектор-психолог, система органов внутренних дел, социально-психологические требования, профессиональная компетентность, стрессоустойчивость, общение.



Abstract: This thesis analyzes the main socio-psychological requirements imposed on the personality of an inspector-psychologist working within the internal affairs system. Taking into account the complex and stress-intensive nature of law enforcement activities, the personal, communicative, and emotional-volitional qualities of the psychologist specialist are highlighted.

Keywords: inspector-psychologist, internal affairs system, socio-psychological requirements, professional competence, stress resistance, communication.

Hozirgi globallashuv va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida ichki ishlar tizimi oldiga nafaqat huquqiy tartibni ta'minlash, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va psixologik muvozanatni saqlash kabi muhim vazifalar ham qo'yilmoqda. Mazkur jarayonda inspektor-psixologlar faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ular xizmat faoliyatida inson omili, shaxslararo munosabatlar, stressli va konfliktli vaziyatlar bilan bevosita ishlaydi. Psixologiya fanida kasbiy faoliyatning ijtimoiy-psixologik mohiyati shaxs, jamiyat va kasb o'rtasidagi o'zaro ta'sir nuqtai nazaridan talqin qilinadi. A.N. Leontev, B.G. Ananov, S.L. Rubinshteyn kabi olimlar faoliyatni shaxs rivojlanishining asosiy omili sifatida ko'rib, kasb shaxs tuzilmasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaganlar. Shu nuqtai nazardan, inspektor-psixolog faoliyati ham shaxsiy sifatlar, ijtimoiy rollar va professional talablarning murakkab integratsiyasini talab etadi. Ichki ishlar tizimidagi psixolog faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida bir nechta ijtimoiy rollarni bajaradi: mutaxassis-psixolog, maslahatchi, vositachi, tashxislovchi hamda profilaktik faoliyat subyekti. Ushbu rollarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi esa psixolog shaxsining ijtimoiy yetukligi, emotsional barqarorligi va kommunikativ kompetensiyasiga bevosita bog'liqdir.

Ijtimoiy-psixologiya fanida shaxsga qo'yiladigan ijtimoiy talablar jamiyatning muayyan tarixiy rivojlanish bosqichida shakllangan ijtimoiy ehtiyojlar, qadriyatlar va me'yorlar bilan belgilanadi. Har bir kasb, ayniqsa davlat va huquqni muhofaza qilish tizimi bilan bog'liq kasblar shaxsdan nafaqat kasbiy bilim va malakalarni, balki muayyan ijtimoiy-psixologik sifatlarni ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ichki ishlar tizimida faoliyat yurituvchi inspektor-psixolog shaxsiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar umumiy psixolog kasbiga nisbatan murakkab va mas'uliyatli xarakterga ega.

B.G. Ananev shaxsni ijtimoiy munosabatlar subyekti sifatida talqin qilib, uning kasbiy faoliyati jamiyat tomonidan belgilangan ijtimoiy rollar orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Inspektor-psixolog faoliyatida ushbu ijtimoiy rollar bir nechta darajada namoyon bo'ladi: huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi, psixolog-mutaxassis, ijtimoiy vositachi va profilaktik faoliyat subyekti. Mazkur rollarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi psixolog shaxsida ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy ongning yetukligini talab etadi. Inspektor-psixolog shaxsiga qo'yiladigan asosiy ijtimoiy talablardan biri — ijtimoiy mas'uliyat va professional burchni anglashdir. Ijtimoiy mas'uliyat shaxsning jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'ya olishida, xizmat faoliyatida qonuniylik va adolat tamoyillariga amal qilishida namoyon bo'ladi. Ushbu sifat ichki ishlar tizimi faoliyatining ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, psixologning har bir qarori va xulosasi jamiyatda muayyan ijtimoiy oqibatlarga olib kelishini anglash bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, inspektor-psixolog shaxsida ijtimoiy me'yorlar va kasbiy etikaga rioya qilish talabi muhim o'rin tutadi. Psixologiya fanida kasbiy etika shaxslararo munosabatlarda ishonchni ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Ichki ishlar tizimida psixolog maxfiy axborot, shaxsiy ma'lumotlar va nozik psixologik holatlar bilan ishlaydi. Shu sababli maxfiylikni saqlash, shaxs sha'ni va qadr-qimmatiga hurmat bilan yondashish psixolog shaxsiga qo'yiladigan muhim ijtimoiy talab



hisoblanadi. Nazariy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, shaxsning kasbiy faoliyatdagi ijtimoiy muvaffaqiyati uning ijtimoiy moslashuv darajasi bilan belgilanadi. A.V. Petrovskiy va G.M. Andreeva ijtimoiy moslashuvni shaxsning ijtimoiy muhitga faol kirishuvi va undagi o'zgarishlarga moslashish qobiliyati sifatida izohlaydilar. Inspektor-psixolog turli ijtimoiy guruhlar, xizmat jamoalari va muammoli shaxslar bilan ishlash jarayonida yuqori darajadagi moslashuvchanlikka ega bo'lishi zarur. Bu sifat uning kasbiy samaradorligini oshiradi hamda ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, inspektor-psixolog shaxsida ijtimoiy yetuklik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlangan bo'lishi talab etiladi. Ichki ishlar tizimida ko'plab vaziyatlar tezkor va mustaqil qaror qabul qilishni taqozo etadi. Bunday sharoitda psixologning ijtimoiy yetukligi uning vaziyatni to'g'ri baholashi, ijtimoiy oqibatlarni oldindan ko'ra olishi va professional pozitsiyani saqlab qolishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, inspektor-psixolog shaxsiga qo'yiladigan muhim ijtimoiy talablardan yana biri — ijtimoiy ishonchlilikdir. Ushbu tushuncha psixologning xizmat faoliyatida barqarorligi, halolligi va mas'uliyatli munosabatini ifodalaydi. Ijtimoiy ishonchlilik psixolog faoliyatiga bo'lgan jamoa va jamiyat ishonchini mustahkamlaydi hamda psixologik xizmat samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, inspektor-psixolog shaxsiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar uning kasbiy faoliyatini ijtimoiy jihatdan samarali tashkil etishga qaratilgan bo'lib, ular shaxsning ijtimoiy ong, mas'uliyat, etika, moslashuvchanlik va yetuklik kabi sifatlarini o'z ichiga oladi. Mazkur talablarni nazariy jihatdan asoslash ichki ishlar tizimi uchun yuqori malakali psixolog kadrlarni tayyorlashda muhim ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Inspektor-psixolog shaxsiga qo'yiladigan muhim ijtimoiy-psixologik talablardan biri — kommunikativ kompetensiyadir. Ijtimoiy psixologiya



fanida muloqot shaxslararo o‘zaro ta’sirning asosiy mexanizmi sifatida qaraladi. G.M. Andreeva muloqotni kommunikativ, interaktiv va perseptiv jihatlar birligida tahlil qiladi. Ichki ishlar tizimida psixolog ko‘pincha nizoli, ziddiyatli, stressli holatdagi shaxslar bilan muloqotga kirishadi. Bunday vaziyatlarda samarali muloqot o‘rnatish uchun psixologda quyidagi sifatlar rivojlangan bo‘lishi zarur:

- empatiya va boshqalarni tushuna olish qobiliyati;
- faol tinglash ko‘nikmalari;
- psixologik ta’sir va ishontirish usullarini qo‘llay bilish;
- ijtimoiy persepsiya va adekvat baholash qobiliyati.

Kommunikativ kompetensiyaning yetishmasligi psixolog faoliyatida professional xatolarga, noto‘g‘ri tashxis va konfliktlarning chuqurlashuviga olib kelishi mumkin.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar tizimida inspektor-psixolog shaxsiga qo‘yiladigan ijtimoiy-psixologik talablar murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ular shaxsiy, emotsional, kommunikativ va refleksiv sifatlarning uyg‘un rivojlanishini taqozo etadi. Mazkur talablarning ilmiy asosda o‘rganilishi psixolog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va psixologik xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010. — 368 b.



2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 256 b.
3. Ichki ishlar organlarida psixologik xizmatni tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlar to'plami. — Toshkent, 2022.
4. Leontev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. — M.: Politizdat, 1977. — 304 b.
5. Rubinshteyn S.L. Osnovy obshchey psixologii. — SPb.: Piter, 2002. — 720 b.
6. Petrovskiy A.V. Lichnost. Deyatelnost. Kollektiv. — M.: Politizdat, 1982. — 255 b.
7. Selye G. Stress bez distressa. — M.: Progress, 1982. — 124 b.
8. Karpov A.V. Psixologiya refleksii lichnosti. — M.: IPRAN, 2003. — 352 b.

